


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA  
QO‘MITASI**

**TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI**



**TOSHKENT SHAHRINING  
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2022-YIL  
YANVAR-IYUN**

**Toshkent – 2022**

## SO‘Z BOSHI

Toshkent shahrining statistik axborotnomasi – Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Toshkent shahar statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2022-yil yanvar-iyun oylari yakunlari bo'yicha Toshkent shahrining asosiy statistik ko'rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda statistik ko'rsatkichlar Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahrining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (2 tahrir) bo'yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT-2 talablari qo'llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo'naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, Yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi faoliyat turlarining ulush ko'rsatkichlari yalpi qo'shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya'ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar ta'siri chiqarib tashlangan).

Nashr 12 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo'lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyati, tashqi iqtisodiy aloqa, sanoat, investitsiya va qurilish, transport, tovar va xizmatlar bozori, demografiya va mehnat bozorlarining rivojlanish dinamikasi to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

## Qisqartma va shartli belgilar

YAHM	–	yalpi hududiy mahsulot	l.	–	litr
%.	–	Foiz	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	–	milliard	m.	–	Marta
mln.	–	million	–	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSH doll.	–	million AQSH dollari	ga.	–	Gektar
kv.	–	kvadrat	tn.	–	Tonna
km.	–	kilometr	yo‘lovchi/km	–	yo‘lovchi-kilometr
m	–	metr	1), 2), 3) ..... 1), 2), 3) .....	–	izohning mavjudligi

## MUNDARIJA

Nomi	bet.
<b>ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR</b>	<b>6</b>
<b>I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH</b>	<b>7</b>
<b>II. SANOAT</b>	<b>11</b>
<b>III. INVESTITSİYALAR VA QURILISH</b>	<b>31</b>
<b>IV. XIZMATLAR</b>	<b>45</b>
<b>V. TRANSPORT</b>	<b>62</b>
<b>VI. ISTE'MOL BOZORI</b>	<b>64</b>
<b>VII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR</b>	<b>73</b>
<b>VIII. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)</b>	<b>84</b>
<b>IX. KORXONA VA TASHKIOTLARNING MOLİYAVIY NATIJALARI</b>	<b>91</b>
<b>X. KORXONALAR VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI</b>	<b>98</b>
<b>XI. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI</b>	<b>108</b>
<b>XII. DEMOGRAFIK HOLAT</b>	<b>111</b>

**Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar  
2022 -yil yanvar-iyun oylari**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2021 -yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot	68 703,4	107,8
Sanoat mahsuloti	47 115,5	107,6
Iste'mol tovarlari	21 757,8	135,0
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	25 763,0	94,6
Qurilish ishlari	14 521,0	109,0
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	1213,4	115,0
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi-km)	5378,7	101,8
Chakana tovar aylanmasi	34 235,5	108,1
Xizmatlar, jami	60 576,5	115,8
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b> (mln. AQSH doll.)	9 265,7	126,9
Eksport	2 118,6	121,9
Import	7 147,1	128,4
Saldo (+;-)	-5028,5	x

\* Mahsulotning fizik hajmi 2022-yil yanvar-iyun (2021- yil yanvar-iyunga nisbatan)


## I. YALPI HUDUDIIY MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyunida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 68 703,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 7,8 % ga o'sdi.

### Yanvar-iyun oylari uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish


	<i>mlrd. so'm</i>		<i>2021-yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2021-yil</i>	<i>2022-yil</i>	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>56 337,0</b>	<b>68 703,4</b>	<b>107,8</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	50 621,9	61 442,6	107,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	5 715,1	7 260,8	111,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>50 621,9</b>	<b>61 442,6</b>	<b>107,4</b>
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>21 512,0</b>	<b>26 826,7</b>	<b>107,9</b>
Sanoat	16 843,9	20 688,1	107,6
Qurilish	4 668,1	6 138,6	109,0
<b>Xizmatlar</b>	<b>29 109,9</b>	<b>34 615,9</b>	<b>107,0</b>
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7 673,2	9 318,7	108,0
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	6 121,3	7 549,0	117,4
Boshqa xizmat tarmoqlari	15 315,4	17 748,2	102,3

**YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari, foizda**  
(2022- yil yanvar-iyun oylarida)




Toshkent shahri iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarish indeksi – 107,6 % ni tashkil etib (YAHM tarkibidagi ulushi 33,7 %), qurilish – 109,0 % (10,0 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 108,0 % (15,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 117,4 % (12,3 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 102,3 % (28,8 %) ni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi**  
(jamiga nisbatan foizda)



2022-yil yanvar-iyun oylari davomida Toshkent shahri bo'yicha savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 15,2 % ni (2021- yil yanvar-iyunda 15,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa sohasida yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 12,3% ni (12,1 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar sohasida yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi 28,8 % ni ( 30,2 %) tashkil etdi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi,**  
(jamiga nisbatan foizda)



Toshkent shahri iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy yalpi hududiy mahsulotning 89,4 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 10,6 % ni tashkil etdi.




Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda) tarmogʻi yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi hisobot yilida 43,7 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining yalpi hududiy mahsulotning tarkibidagi ulushi esa 56,3 % ni tashkil etdi.

2022-yil yanvar-iyun oylari davomida dastlabki maʼlumotlarga koʻra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 23 806,6 ming soʻmni tashkil etib oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 % ga oʻsgan. Shu bilan birga, Toshkent shahrida yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashishi oqibatida YAHMda kichik biznesning ulushi 47,1 % ni tashkil qildi.


#### **Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi**

*( yanvar-iyun oylari, jamiga nisbatan ulushi)*



Oʻzbekiston Respublikasi boʻyicha YAIMni shakllantirishda Toshkent shahrining qoʻshgan hissasi 17,6 % ni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 punktga oʻsgan.

#### **Yalpi ichki mahsulotda Toshkent shahrining ulushi, foizda**




## II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 47 115,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 107,6 % ni tashkil etdi.

Hisobot yilida 27 757,8 mlrd.so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2021- yil yanvar-iyunga nisbatan o'sish 135,0 %ni tashkil etdi. Jumladan, 8 451,8 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 12 532,8 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari (2021- yil yanvar-iyunga nisbatan mos ravishda 147,9 % va 131,2 %) ishlab chiqarildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 8,2 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 26,0 % ga o'sishini va elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 6,8 % ga tog'-kon va ochiq konlarni ishlash sanoati 12,4 % ga pasayishini ko'rishimiz mumkin.

**Yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish tarkibi (mlrd. so'mda)**



### Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati


Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 37 836,7 mlrd. so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi 108,2 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqarish 60,7 % ga, avtotransport vositalar, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish 39,4 % ga, kiyim ishlab chiqarish 17,7 % ga oshgan bo'lsa, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 7,4 % ga kamayganligini kuzatishimiz mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmog'ining ulushi 8,3 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali 20,9 % ni, o'rta-quyi texnologiyali 30,0 % ni, quyi texnologiyali 40,8 % ni tashkil etdi.

#### Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, foizda



### **Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida oʻrganilganda, joriy yilning yanvar-iyun oylarida togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 7 224,0 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 87,6 % ni tashkil qildi.

Togʻ-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi boʻyicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi oʻtgan yilning tegishli davriga 55,3 % ga oshgan, boshqa togʻ-kon sanoati faoliyati esa 13,7 % ga kamayganini kuzatish mumkin.

### **Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 1720,8 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 93,2 % ni) tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalari mahsulotlari oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan 6,8 % ga kamaygan.

### **Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.**

Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 334,0 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 74,0 % ni) tashkil etganligi kuzatildi. Bunda, 2022-yil yanvar-iyun oylarida suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 26,0 % ga koʻpaygan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini  
ishlab chiqarish hajmi**  
(2022- yil yanvar-iyun oylarida)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>47 115,5</b>	<b>107,6</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>7 224,0</b>	<b>87,6</b>
Xom neft va tabiiy gaz	7 020,6	86,3
Boshqa foydali qazilmalarni qazib olish mahsulotlari	172,8	155,3
Tog'-kon sanoatida texnika xizmatlari	30,6	462,6
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>	<b>37 836,7</b>	<b>108,2</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari	5 009,8	122,3
Ichimliklar	4 314,6	190,4
Tamaki mahsulotlari	154,7	94,2
To'qimachilik mahsulotlari	2 396,6	89,3
Kiyimlar	575,3	117,7
Charm va charmdan mahsulotlar	63,9	106,6
Yog'och hamda yog'och va po'kakdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari); poxolcha va to'qish uchun materiallardan yasalgan buyumlar	382,4	123,2
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari	1 072,4	202,6
Nashr qilish xizmatlari va yozilgan materiallarni aks ettirish bo'yicha xizmatlar	829,5	192,2
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari	175,1	267,0
Kimyo mahsulotlari	1 168,5	90,6

*(davomi)*


	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va farmatsevtika preparatlari	1 406,6	160,7
Rezina va plastmassa buyumlar	1 449,7	103,2
Boshqa nometall mineral buyumlar	1 643,9	92,6
Metallurgiya sanoati	6 077,0	154,2
Mashina va asbob-uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar	1 462,3	89,4
Kompyuterlar, elektron va optik uskunalar	1 736,8	53,1
Elektr uskunalar	3 342,3	91,9
Boshqa guruhlariga kiritilmagan mashinalar va uskunalar	1 284,8	124,3
Avtotransport vositalari, pritseplar va yarim pritseplar	1 807,8	139,4
Boshqa transport vositalari va uskunalar	289,6	96,5
Mebel	277,5	84,8
Boshqa mahsulotlar	380,1	180,2
Mashinalar va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish bo'yicha xizmatlar	535,5	99,1
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>1 720,8</b>	<b>93,2</b>
Elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo	1 720,8	93,2
Elektr, bug' ta'minoti tizimlari va konditsionerlari ishlab chiqarish va tarqatish	1 544,9	92,0
Gazsimon yoqilg'ilarni ishlab chiqarish va tarqatish	175,0	109,4
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>334,0</b>	<b>74,0</b>
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash	216,8	155,0
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish	117,2	36,1

(davomi)

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sinh sur‘ati, foiz hisobida</i>
<b>Iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish</b>	<b>21 757,8</b>	<b>135,0</b>
shu jumladan:		
oziq-ovqat tovarlari	8 451,8	147,9
nooziq-ovqat tovarlari	12 532,8	131,2
Aroq va sharob mahsulotlari	773,3	84,7

Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta‘minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq Toshkent shahrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalari tomonidan joriy yilning yanvar-iyun oylarida 22 054,2 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish hajmiga 46,8 % ni tashkil etdi, shuning bilan birga davlat sektorida 13 503,1 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 28,7 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 33 612,4 mlrd.so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 71,3 % ni tashkil etdi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida  
2022 -yil yanvar-iyun oylarida (foiz hisobida)**




Sanoat sohasida modernizatsiyalash ko'lamlarini jadallashtirish va kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi davom ettirildi.

Tarmoq korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-iyun oylarida 22 054,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi quyidagicha tavsiflanadi.


Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish iqtisodiyotning muhim omili bo'lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari faoliyati sanoat ishlab chiqarish indeksi 87,6 % ni, qayta ishlash sanoati 108,2 % ni, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo 93,2 % ni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar 74,0 % ni tashkil etdi.

#### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish** *(umumiy hajmga nisbatan foizda)*

**2021 -yil yanvar-iyun**



**2022-yil yanvar-iyun**



- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat  
mahsuloti turlarini ishlab chiqarish hajmi**  
(yirik korxonalar bo'yicha)

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2022- yil yanvar-iyun</i>	<i>2021- yil yanvar-iyunrga nisbatan % da</i>
--	----------------------------	----------------------------------	---

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**

Neft	<i>Ming tn</i>	319,9	97,9
Gaz kondensanti	<i>Ming Tn</i>	372,9	99,2
Tabiiy gaz	<i>Mln. kub.m</i>	17 921,6	101,0
Chaqiq tosh	<i>Tonna</i>	421 116,5	65,7

**Qayta ishlash sanoati**

Tamaki mahsulotlari, tamakidan tayyorlangan	<i>mln. dona</i>	1 016,6	115,0
Yangi so'yilgan yoki sovutilgan go'sht	<i>tonna</i>	13,9	-
Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>tonna</i>	29 701,0	77,1
Quyiltirilmagan va shakar qo'shilmagan, yog'liligi 6 % dan yuqori sut va qaymoq	<i>tonna</i>	2 282,0	89,8
O'simlik yog'i (tozalangan)	<i>tonna</i>	446,9	354,7 m.
Margarin va spredlar	<i>tonna</i>	6 290,0	100,9
Aroq - 100% spirt	<i>ming litr</i>	8 877,3	98,4
Konyak spirti - 100% spirt	<i>ming litr</i>	1 771,0	83,8
Uzum vinosini distillash yoki uzumni siqish natijasida olingan spirt nastoykalari - 100% spirt	<i>ming litr</i>	351,1	70,7
Uzum vinolari	<i>ming litr</i>	3 743,7	95,3
Pivo	<i>ming litr</i>	40 584,3	103,9

(davomi)

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2022- yil yanvar-iyun</i>	<i>2021 - yil yanvar-iyunga nisbatan % da</i>
Paxtadan yigirilgan ip	<i>tonna</i>	18 994,7	70,1
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar	<i>tonna</i>	8 790,1	94,3
Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar	<i>ming dona</i>	544,0	69,3
Ichdan kiyiladigan trikotaj kiyimlar	<i>ming dona</i>	1 706,0	98,4
Yarim tsellyulozadan tayyorlangan gofrirovka qilish uchun qog'oz (o'rtacha taramlangan)	<i>tonna</i>	629,0	66,5
Qayta tiklangan va boshqa gofrirovka uchun qog'oz - tn	<i>tonna</i>	629,0	66,5
Kitoblar, geografiya xaritalar, gidrografik yoki shu kabi kartalarning barcha turlari, reproduksiyalar, chizmalar va fotosuratlar, otkritkalarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	152 816 237,0	3,1 m.
Gazetalarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	21 993 624,0	158,0
Savdo-reklama kataloglari va boshqa bosma reklama mahsulotlarini chop etish xizmatlari	<i>ming so'm</i>	5 877 107,0	128,7
Seyalki	<i>dona</i>	55,0	47,4
Haftada to'rt martadan kam chiqadigan jurnal va davriy nashrlar uchun matbaa xizmatlari	<i>ming so'm</i>	802 795,0	45,4
Paxta tolasi	<i>ming tonna</i>	4 514,0	77,2
Suyultirilgan propan va buta4	<i>ming tonna</i>	277,5	110,5
Texnik oltingugurt	Tonna	117 352,0	90,7

davomi

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2022- yil yanvar -iyun</i>	<i>2021- yil yanvar-iyunga nisbatan % da</i>
Murakkab organik erituvchilar va suyuqtirgichlar	<i>tonna</i>	80,0	2,8 m.
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, suv muhitida	<i>tonna</i>	8 051,0	98,1
Sintetik polimerlar asosidagi bo'yoqlar va laklar	<i>tonna</i>	3 476,0	86,6
Denaturlanmagan, spirt konsentratsiyasi 80 % hajmdan kam bo'lmagan etil spirti	<i>ming litr</i>	5 783,0	83,4
Chakana savdo uchun qadoqlangan yoki dozalariga bo'lingan, tarkibida penitsilin yoki uning hosilalari bo'lgan, penitsilin kislotasi tuzilmasiga ega yoki tarkibida streptomitsin yoki uning hosilalari bo'lgan medikamentlar	<i>tonna</i>	98,3	2,1 m.
Tarkibida gormonlar yoki antibiotiklar bo'lmagan medikamentlar	<i>tonna</i>	10 735,7	164,5
Chakana savdo uchun qadoqlangan, tarkibida boshqa antibiotiklar bo'lgan medikamentlar	<i>tonna</i>	1 047,6	91,5
Binolar va inshootlar uchun sement, beton yoki sun'iy toshdan yig'ma konstruksiyalar elementlari va boshqa buyumlar	<i>tonna</i>	2 367 958,1	55,5
Qurilish uchun o'tga chidamsiz g'ishtlar	<i>ming dona</i>	457,9	3,8 m.
Butilkalar	<i>ming dona</i>	263 100,7	157,1
Sement, beton yoki sun'iy toshdan qurilish uchun g'isht va bloklar	<i>tonna</i>	331 129,0	58,6
Temirdan yoki legirlanmagan po'latdan bolg'alangan, issiqalayin prokatka qilingan, issiqalayin cho'zilgan yoki ekstrudirlangan chiviqlar va sterjenlar, jumladan prokatkadan keyin kalavalarga o'ralgan chiviqlar	<i>tonna</i>	54 133,9	80,7

Po'latdan choksiz neft va gaz quvurlari	<i>tonna</i>	17 663,0	2,4 m.
Mis sim	<i>tonna</i>	13 945,7	79,6
Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim, po'lat arqonlar, to'qilgan shnurlar va shu kabi buyumlar	<i>tonna</i>	113,9	15,7
Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar va to'siqlar	<i>tonna</i>	2,9	0,8
Elektrsiz isitiladigan markaziy isitish radiatorlari va ularning qora metallardan yasalgan qismlari	<i>tonna</i>	3 983,2	-
Qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik yoki o'rmon xo'jaligida ishlatish uchun dastakli asboblari	<i>tonna</i>	0,3	107,3
Bug' qozonlari yoki boshqa bug' generator qozonlar; bug' qizdirgichli suv qozonlari	<i>tonna</i>	3,0	107,3
1 kV dan ortiq bo'lmagan kuchlanish uchun avtomatik o'chiruvchilar	<i>tonna</i>	9,3	22,9
Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo'lmagan elektr zanjirini o'chirish, almashlab ulash yoki himoyalash uchun apparatura bilan jihozlangan taqsimlash shitlarini va boshqa panellar	<i>tonna</i>	38,6	97,5
Izolyatsiya qilingan o'rash simlari	<i>tonna</i>	1 236,0	60,2
Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo'lgan (yuqori voltli), boshqa elektr toki o'tkazgichlari	<i>tonna</i>	3 877,9	3,4 m.
Sovutkich va muzlatkichlar	<i>dona</i>	302 555,0	104,4
Traktorlar	<i>dona</i>	73,0	42,2
O'rim-yig'im va xirmonlar uchun mashina va uskunalari qismlari - tn	<i>tonna</i>	0,1	-
Tuproqni tayyorlash yoki ishlov berish uchun ishlatiladigan mashina qismlari	<i>dona</i>	0,7	9,3

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2022- yil yanvar-iyun</i>	<i>2021- yil yanvar-iyunga nisbatan % da</i>
--	----------------------------	----------------------------------	--

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektroyenergiya	<i>Mln.kVt soat</i>	217,6	127,7
Issiqlik energiyasi	<i>Ming Gkal</i>	6 959,5	92,5
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar	<i>Ming so'm</i>	399 432,0	103,8
	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2022-yil yanvar-iyun</i>	<i>2021 -yil yanvar-iyunga nisbatan % da</i>

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va  
utilizatsiya qilish**


Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	131323384,0	140,6
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	79164627,0	184,1
Xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	61826150,0	110,8
Plastmass chiqindilar	<i>tonna</i>	603,0	82,5
Xavfsiz metall chiqindilar	<i>tonna</i>	1395,0	53,7
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar	<i>tonna</i>	148,8	68,0
Xavfli (zaharli) kimyoviy chiqindilar	<i>tonna</i>	398,7	72,0

### Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Yashnobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 24,0 % ulushini), Sergeli tumani (11,5 %), Bektemir tumani (9,5 %), Chilonzor tumani (9,5 %), Mirobod tumani (7,9 %), Yakkasaroy tumani (6,9 %) hissasiga to'g'ri keladi. Shuning bilan birga, eng kam ulush Uchtepa (3,5 %), Yangiheyot (3,9 %), Yunusobod (4,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

### Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda

(2022- yil yanvar-iyun oylarida)




Dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, Toshkent shahri va tumanlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o'sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 47 115,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,6 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 16 325,9 ming soʻmni yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 101,3 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, Toshkent shahrida isteʼmol tovarlari ishlab chiqarilishi 21 757,8 mlrd. soʻmni tashkil etib, Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan isteʼmol tovarlari hajmi aholi jon boshiga 7 539,2 ming soʻmni yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 127,0 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin.

### **Isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish**


Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini ragʻbatlantirish va turlarini kengaytirish, isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmini 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan (35,0 % ga) oshishiga taʼsir koʻrsatdi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 46,2 % ni tashkil etdi.

**Isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, jami isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, foizda**  
(2022- yil yanvar-iyun oylarida)




2022-yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 8 451,8 mlrd. soʻmga yetkazilib, jami isteʼmol tovarlaridagi ulushi 38,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 12 532,8 mlrd. soʻm, jami isteʼmol tovarlaridagi ulushi 57,6 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 773,3 mlrd. soʻm hisoblanib, jami isteʼmol tovarlaridagi ulushi 3,6 % ni tashkil etdi.

**Hududlarning jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish  
hajmidagi ulushi, foizda** (2022- yil yanvar-iyun oylarida)




**Hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi, foizda**  
(2022- yil yanvar-iyun oylarida, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan)





**Hududlarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlarning  
o'sish sur'atlari, foizda (2022- yil yanvar-iyun oylarida,  
o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan)**



Bunda, Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishning eng katta fizik hajmi indeksi Chilonzor tumani (138,1 %), Yakkasaroy tumani (114,0 %), Sirg'ali tumani (113,6 %), Yunusobod tumani (111,3 %) va Bektemir tumanlarida (106,7 %) kuzatilmoqda. Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng kichik o'sish sur'atlari Yashnobod tumanlarida (113,9 %), Olmazor tumani (116,5 %) va Sergeli tumanlarida (123,5 %) kuzatilgan.


**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda bir maromdagi o'sish ta'minlandi. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 31,8 % ni tashkil etgan.

**Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab  
chiqarishdagi ulushi, foizda (yanvar-iyun)**

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 64,0 %), Yunusobod (47,0 %), Yakkasaroy (41,5 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulushi Yashnobod (16,5 %), Bektemir (26,9 %) va Shayxontohur (27,1 %) tumanlarida kuzatildi.

**2022-yil yanvar-iyun oylarida tumanlar kesimida kichik biznesning  
jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, foizda**




**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar  
mahsulotlarining ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 16 365,7 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Oʻtgan yilda qoʻshma korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 33,6 % ni tashkil etgan boʻlsa, hisobot davrida bu koʻrsatkich 34,7 % ni tashkil qildi.

Qoʻshma korxonalar tomonidan joriy yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining Respublika sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 27,0 % ni tashkil etdi, bu iqtisodiyotni isloh qilish va liberallashtirishni, jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini berdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining  
sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, foizda  
2022- yil yanvar-iyun oylarida**




### Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,2 mingdan ortiq sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2094 ta korxona (jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 12,9 %) Olmazor tumaniga, 1982 ta korxona (12,2 %) Chilonzor tumaniga, 1869 ta korxona (11,5 %) Uchtepa tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


#### Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2022- yil 1-iyul holatiga)



#### Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2022- yil yanvar-iyun oylarida)




2022-yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida 867 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan qariyb 13,6 % Olmazor, 11,0 % Uchtepa, 10,1 % Yunusobod tumanlari yuqori ulushga ega.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni  
mahalliylashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**  
(2022- yil yanvar-iyun oylarida)

	<i>Loyihalar soni, birlikda</i>	<i>Ishlab chiqarish hajmi, mln. so'm</i>	<i>Eksportga sotilgan mahsulot hajmi, ming AQSh dollari</i>	<i>Yangi tashkil qilingan ish o'rinlari soni, birlikda</i>
<b>Jami:</b>	<b>401</b>	<b>4959,4</b>	<b>87,3</b>	<b>698</b>
<i>shundan;</i>				
Uchtepa	14	312,5	3,2	151
Bektemir	46	251,9	1,5	64
Yunusobod	20	408,9	13,6	21
Mirzo Ulug'bek	28	298,6	2,1	35
Mirobod	20	191,2	0,8	50
Shayxontohur	11	46,3	-	100
Olmazor	15	310,3	0,8	12
Sergeli	85	180,0	3,0	6
Yakkasaroy	28	143,0	0,6	22
Yashnobod	28	1433,3	22,9	5
Yangihayot	37	118,1	1,0	48
Chilonzor	69	1265,3	37,9	184

**Mahalliyashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, foizda 2022- yil yanvar-iyun oylarida**



**Statistik ko'rsatkichlarga tushuntirish**

**Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi** – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

**Sanoat ishlab chiqarishda o'zgarish indeksleri** – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir; Iste'mol mollari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

**Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi** – boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

**Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash** Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.


**Mahalliyashtirish darajasi** – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; Mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi; mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

**Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati** – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.

### III. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

Joriy yilning yanvar–iyun oylarida Toshkent shahrida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 25 763,0 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 94,6 % ni tashkil qildi.

**Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va o‘sish sur‘ati**  
(2022- yil yanvar-iyun)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi bo‘yicha tumanlar kesimida Yunusobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,2 % o‘zlashtirildi.

Shuningdek, Shayxontohur tumani jami investitsiyalar hajmidan 13,1 % ni, Mirobod tumani 11,0 % ni tashkil etmoqda.

Mirzo Ulug‘bek 10,3 %, Yakkasaroy, Yashnobod tumanlarida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 9,2 hamda 8,7 % ni tashkil etdi.

Yangiheyot va Bektemir tumanlarida investitsiyalar eng kam o‘zlashtirilgan bo‘lib, har birining Toshkent shahridagi ulushi 2,8 % va 4,0 % ni tashkil etdi.

**Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning hududlar  
bo'yicha taqsimlanishi ( 2022- yil yanvar-iyun)**

*mln. so'm*

	<i>Jami investitsiyalar</i>	<i>Markazlashgan</i>	<i>Markazlashmagan</i>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>25 763 026,5</b>	<b>2 542 282,1</b>	<b>23 220 744,4</b>
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	1 019 013,8	22 338,3	996 675,5
Mirzo Ulug'bek	2 646 251,6	213 075,4	2 433 176,2
Mirobod	2 834 359,2	697 295,4	2 137 063,8
Olmazor	2 070 779,1	191 146,7	1 879 632,4
Sergeli	1 545 986,7	120 528,7	1 425 458,0
Uchtepa	1 170 329,4	152 058,0	1 018 271,4
Chilonzor	1 583 563,2	138 121,9	1 445 441,3
Shayxontohur	3 375 764,6	419 777,6	2 955 987,0
Yunusobod	4 168 917,2	426 388,4	3 742 528,8
Yakkasaroy	2 377 539,3	103 462,1	2 274 077,2
Yangihayot	720 169,5	23999,2	696 170,3
Yashnobod	2 250 352,9	34 090,4	2 216 262,5

Markazlashgan investitsiyalarning asosiy kapitalga o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha tumanlar kesimida Mirobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami markazlashgan asosiy kapitalga investitsiyalarning 27,4 % o'zlashtirildi.

Shuningdek, ushbu o'zlashtirish bo'yicha Yunusobod tumani 16,8 % ni, Shayxontohur tumani 16,5 % ni tashkil etmoqda.

Markazlashmagan investitsiyalarning asosiy kapitalga o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha tumanlar kesimida Yunusobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami markazlashmagan asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,1 % o'zlashtirildi.


Shuningdek, ushbu o'zlashtirish bo'yicha Shayxontohur tumani 12,7 % ni, Mirzo Ulug'bek tumani 10,5 % ni tashkil etmoqda.

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**  
(2022- yil yanvar-iyun)

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	<b>25 763,0</b>	<b>94,6</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>2 542,3</b>	<b>35,8</b>	<b>9,9</b>
budjet mablag'lari	1 773,9	98,9	6,9
Davlat maqsadli jamg'armalari	6,5	119,0	0,1
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	56,6	10,3	0,2
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi kreditlar	705,3	14,8	2,7
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>23 220,7</b>	<b>115,3</b>	<b>90,1</b>
korxona mablag'i	15 498,6	152,3	60,1
aholi mablag'i	622,4	64,8	2,4
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	4 759,8	65,8	18,5
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	2 339,9	132,4	9,1




**Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi, (umumiy hajmga nisbatan, %da)**




Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2 542,3 mlrd. so‘m yoki o‘tgan yilning joriy davriga nisbatan 35,8 % (jami investitsiyalar hajmining 9,9 % i)ga kam o‘zlashtirildi, mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa 23220,7 mlrd.so‘m yoki o‘tgan yilning mazkur davriga nisbatan 115,3 % (jami investitsiyalardagi ulushi 90,1 %) ko‘p o‘zlashtirildi.

**Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari**




**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, foizda**



Markazlashmagan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari asosan korxona mablag'lari (jami investitsiyalar hajmiga nisbatan 60,2 %), to'g'ri ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar (18,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, foizda (2022- yil yanvar-iyun)**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 6 218,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 24,1 %i o'zlashtirilgan.


Keyingi o'rinda aloqa va axborotlashtirish tarmog'i bo'lib, jami moliyalashtirish manbai hisobidan 3 235,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 12,6% o'zlashtirilgan.

Sanoat tarmog'i tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1172,3 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 4,6 %).

- Elektr uskunalari ishlab chiqarish 856,7 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,3 %);

- To'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 825,0 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,2 %);




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida: Toshkent shahri bo'yicha qurilish–montaj ishlarining ulushi 40,8 % ni, mashina, uskuna, inventar sotib olishga xarajatlar 48,8 % ni hamda boshqa harajatlar ulushi 10,4 % ni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning mulkchilik shakllari  
bo'yicha texnologik tarkibi  
(2022- yil yanvar-iyun)**


	<i>Jami</i>	<i>Davlat</i>	<i>Nodavlat</i>
<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>25 763,0</b>	<b>2 686,4</b>	<b>23 076,6</b>
<i>shu jumladan jamiga nisbatan % da:</i>	<b>100,0</b>	<b>10,4</b>	<b>89,6</b>
Qurilish – montaj ishlari	10 527,2	1 211,8	9 315,4
Mashina, uskuna, inventar	12 564,8	1 320,7	11 244,1
Boshqa xarajatlar	2 71,0	153,9	2 517,1

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, foizda  
(2022-yil yanvar-iyun)**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida: Qurilish – montaj ishlari bo'yicha Uchtepa tumanida 57,4 %, Mirzo Ulug'bek tumanida 53,1 %, Shayxontohur tumanida 50,0 %, Sergeli tumanida 45,5 % hamda Yangiheyot tumanida 44,7 % ni tashkil etdi. Mashina, uskuna, inventar sotib olishga harajatlar bo'yicha Bektemir tumanida 80,3 % ni, Chilonzor tumanida 68,1 % ni, Mirobod tumanida 56,3 % ni, Yunusobod tumanida 55,5 % ni hamda Olmazor tumanida 52,1 % ni tashkil qildi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab  
chiqarish tarkibi, foizda  
(2022- yil yanvar-iyun)**




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibida: yangi qurilish bo'yicha Shayxontohur tumani 55,7 %, Segeli tumanida 55,6 %ni, Mirzo Ulugʻbek tumanida 55,5 %ni, Uchtepa tumanida 54,3 % hamda Yashnabod tumanida 47,4 % ni tashkil etdi. Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta qurollantirish bo'yicha Yunusobod tumanida 39,7 % ni, Chilonzor tumanida 39,4 % ni, Yakkasaroy tumanida 36,1 %,ni, Mirobod tumanida 35,5 % ni, Bektemir tumanida 31,7 % ni hamda asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibida boshqalar yoʻnalishida Chilonzor tumanida 47,2 %ni, Yakkasaroy tumanida 33,0 % ni, Yangihayot tumanida 33,0 % ni va Olmazor tumanida 31,0 % ni tashkil qildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zlashtirilgan  
asosiy kapitalga investitsiyalar  
(2022- yil yanvar-iyun)**

	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>	
		<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar - jami</b>	<b>25 763,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	186,6	1,1	0,7
Tog' - kon sanoati	207,6	0,6	0,8
Ishlab chiqarish sanoati	6 218,3	18,8	24,1
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	347,2	3,6	1,3
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	47,9	0,2	0,2
Qurilish	3 128,9	7,8	12,1
Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	1 745,3	4,3	6,8
Tashish va saqlash	1 777,6	11,7	6,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	610,8	2,6	2,4
Axborot va aloqa	3 235,1	5,9	12,6
Moliya va sug'urta faoliyati	909,6	3,1	3,5
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	984,7	4,1	3,8
Ta'lim	689,5	2,6	2,7
